



Jahon Adabiyotida Sehrli Realizm

Tursunova Mohira Ilxomjanovna

o'qituvchi (PhD)

Namangan davlat chet tillari instituti

Annotatsiya: Ushnu maqolada Yevropa san'atida shakllanib, keyinchalik Lotin Amerikasi adabiyotida taraqqiy etgan sehrli realizm uslubi qay tarzda yoyilgani va dunyodagi ko'plab adiblarning ijodiga o'z ta'sirini ko'rsatgani o'rganadi.

Kalit so'zlar: sehrli realizm, geografik yoki tarixiy makon, determinizm, zamon kategoriyasi, post-ekspressionizm

Аннотация: В статье исследует, как стиль магического реализма, сформировавшийся в европейском искусстве и позднее получивший развитие в латиноамериканской литературе, распространился и повлиял на творчество многих писателей мира.

Ключевые слова: магический реализм, географическое или историческое пространство, детерминизм, категория времени, постэкспрессионизм.

Abstract: The article examines how the style of magical realism, formed in European art and later developed in Latin American literature, spread and influenced the work of many writers around the world.

Keywords: magical realism, geographical or historical space, determinism, category of time, post-expressionism.

XX asrning birinchi yarmida dunyo adabiyotshunoslik ilmda foydalana boshlangan sehrli realizm tushinchasi ayni kunga qadar ham ko'plab bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda. Aslida "sehrli realizm" atamasi adabiyotshunoslikka san'atshunoslik ilmdan kirib kelgan bo'lib, u nemis san'atshunosi Frans Ro nomi bilan bevosita bog'liq. Frans Ro Ernst Fuks, Maks Bekman (Germaniya), Jiorjio de Kiriko (Italiya), Lui Jorj Eleonor Roy (Fransiya), Pol Delvo (Belgiya), Rene Magrit (Belgiya) va boshqa rassomlar ijodini tavsiflar ekan, san'atda yangi uslub sifatida "sehrli" realizmning paydo bo'lganini ta'kidlaydi¹. Frans Ro bu rassomlar asarlarining o'ziga xos xususiyati shundaki, ular obektlarni g'ayrioddiy shaklda taqdim etishadi, deb izohlaydi. Ro "sehrli" tushunchasiga hech qanday diniy, mistik yoki g'ayritabiiy ma'no yuklamaydi. U sehrni haqiqatning boshqa bir tomoni deb talqin qilgan.

XX asrning 20-yillaridan boshlab "sehrli realizm" atamasi Yevropa mamlakatlarida tez tarqala boshladi. Keyinchalik esa dunyoning boshqa mintaqalari mamlakatlarida ham bu adabiy fenomen haqida adabiyotshunoslar o'z tadqiqotlarida fikr bildira boshladilar. 1927-yilda "Revista de Occidente" jurnalida Frans Roning "Sehrli realizm. Post-ekspressionizm" nomli kitobi tarjimai ispan tilida nashr etildi. Bora-bora "sehrli realizm" atamasi san'atshunoslik masalalari doirasidan chiqib ketadi va badiiy adabiyotga nisbatan qo'llanila boshlaydi.

O'tgan asrning birinchi choragida Italiya adabiyotida sehrli realizm deb ataluvchi oqim ham vujudga keldiki, uning nazariy asosi yozuvchi M. Bontempeli tomonidan 1927-28-yillarda nashr etilgan "Novesento" jurnali edi. Sehrli realizm unsurlarini Ernst Kreuderning "Chardakdagi jamiyat" (1946), Herman Kazakning "Daryo ortidagi shahar" (1947), Elizabet Langesserning "O'chmas muhr" (1946) kabi romanlarda kuzatish mumkin edi. O'tgan asrning 40-50-yillarda yozuvchilar J. Dehn va X. Lampo ijodi Belgiya adabiyotida bu usulning paydo bo'lishini belgilab berdi. J. Dehnning "Adabiyot va sehr" (1958) kitobida muallif o'z romanlari va "sehrli realizm" hodisalari misolida voqelikni tasvirlash texnikasi va imkoniyatlarini asoslab beradi.

¹ Roh, Franz. Magic Realism. Post-expressionism. (1927) / Franz Roh. // Magic Realism: Theory, Practice, Community. – Durham, NC and London: Duke University Press, 1995. – P. 15-31.



XX jahon urushi turmushning boshqa jabhalari qatori Yevropa qit'asidagi adiblik va adabiyotshunoslik sohalarida ham turg'unlikka sabab bo'ldi. Biroq bu bilan adabiy jarayon to'xtab qolmadi: dunyoning boshqa qit'asida davom etdi. "Sehrli realizm" Lotin Amerikasi adiblari ijodida paydo bo'ldi. Aslida "cehrli realizm"ning mazkur qit'a ijodkorlari asarlarida paydo bo'lishiga mayyalar, inklar va asteklarning og'zaki ijodi ta'siri juda katta edi. Venesuelalik adabiyotshunos Arturo Uslar-Pyetri bu terminni o'z ilmiy tadqiqotlarida o'tgan asrning birinchi yarmida Lotin Amerikasining ayrim yozuvchilari asarlarini izohlashda ishlatadi. Venesuela qissalarini tadqiq etar ekan, Arturo Uslar-Petri sehrli realizmga quyidagicha ta'rif beradi: "Bu hikoyalarning doimiy va hukmron xususiyati insonning rost voqelik bilan o'ralgan sir sifatida tasvirlanishidir.... Ta'riflash uchun boshqa so'z yo'qligi sababli uni sehrli realizm deb atash mumkin"².

1948-yilda kelib chiqishi kubalik bo'lgan yozuvchi Aleho Karpenter "El Nacional" jurnalida chop etilgan maqolasida "ajoyib reallik" (lo real maravilloso) tushunchasi haqida so'z yuritadi. Keyinchalik Aleho Karpentier "Er qirolligi" asarida "ajoyib reallik" konsepsiyasini tushuntirar ekan, quyidagi to'rtta nuqtayi nazarga asoslanadi:

1. Lotin Amerikasi voqeligining o'zi "mo'jizavor"dir;
2. fantastika (mifologiya) bilan realizmning o'ziga xos aralashmasi qit'a "mo'jizavor" voqeligining haqiqiy aks etishi bilan bog'liq;
3. Lotin Amerikasi san'atining "mo'jizaviy"ligi Yevropa modernizmidan tubdan farq qiladi va unga qarama-qarshi qo'yilgan;
4. "Ajoyibotlar dunyosi" Lotin Amerikasi adabiyotining asosiy o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Karpenterning "sehrli" realizmi real voqelikka parallel ravishda muqobil voqelikning mavjudligini ochib beradi³.

"Sehrli" realizm hodisasi, garchi Yevropada paydo bo'lgan esada, Lotin Amerikasi yozuvchilarining asarlarida o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi. V.Bagno ta'kidlaganidek, XX asrning 30-40-yillarida Borxes, Asturiya va Karpenter asarlarida fantastik nasriy asarlar yo'nalishlarining "metafizik" va "mifologik" xususiyatlari aniqlangan, keyinchalik esa bu xususiyatlar Xulio Kortazar va Gabriel Garsiya Markes asarlarida rivojlantirilgan. Lotin Amerikasining ko'plab adiblari ijodidan qat'iy o'rin egallagan "sehrli" realizm asta-sekin ijodiy usul sifatida tan olindi.

1995-yilda Anxel Flores o'z maqolasida "sehrli realizm" tushunchasiga qat'iy adabiy termin sifatida yondashadi⁴. Avvaliga G.G.Markes, X.L.Borxes, M.A.Asturias, A.Karpentier kabi Lotin Amerika yozuvchilari ijodiy uslubiga nisbatan qo'llanilgan bu atama keyinchalik Frans Kafka, Maykl Prust kabi yevropalik ijodkorlarning ayrim asarlari tahlili jarayonida ham tatbiq etila boshlandi.

O'tgan asrning 60-70-yillari Lotin Amerikasi romanining jadal rivojlanishi bilan esda qolarli davr bo'ldi. X.Kortazar, A.Karpenter, G.Garsiya Markes, M.A.Asturias, J.L.Borxes va boshqa yozuvchilarning ijodiga bag'ishlangan ko'plab maqola va monografiyalarda tadqiqotchilar bir ovozdan yuqorida nomlari keltirilgan adiblarning nasri universal xususiyatga ega estetik hodisa ekanini ta'kidlashdi. Adabiyotshunos V.N.Kuteyshchikovaning ta'kidlashicha, Lotin Amerikasi adabiy muhitida yaratilgan yangi roman ijodkorlarining uslublaridagi umumiylik shundaki, ularning asarlarida "voqelik go'yo xalq og'zaki ijodi shuuri prizmasidan o'tkaziladi"⁵.

Rus adabiyotshunos olimlari ham sehrli realizm uslubining o'ziga xosliklari va badiiy ahamiyati haqida izlanishlar olib bordilar.

² Bu haqda qarang: Кофман А.Ф. Проблема «магического реализма» в латиноамериканском романе / А.Ф.Кофман // Современный роман. Опыт исследования. – М.: Наука, 1990. С.185.

³ Карпентьер А. Царство земное. – М.: Издательство «Радуга», 1988. С.52.

⁴ Flores Angel. Magical Realism in Spanish American Realism / Hispania. Vol 38, No.2(May, 1955), pp.187-192.

⁵ Кутейшикова В.Н. Новый латиноамериканский роман / В.Н.Кутейшикова, Л.С.Осват. – М.: Сов. Писатель, 1983. – С. 6.



Lotin Amerikasida kechgan adabiy jarayonlarni o'rgangan M.M.Baxtin realistik san'atning asosiy oqimida shakllanishi davrida Lotin Amerikasi romani o'z chegaralarini g'ayrioddiy ravishda kengaytirganligini ta'kidlaydi⁶.

K.N.Kislitsin sehrli realizm uslubida yozilgan asarlarga xos bo'lgan to'qqizta xususiyatni ajratib ko'rsatadi. Uning fikricha, quyidagi eng muhim adabiy xususiyatlar sehrli realizm uslubida yozilgan asarlarda mavjud bo'lishi lozim:

- 1) asarda ikki xil – birlamchi va yashirin borliqning birgalikda mavjud bo'lishi. Hayotiylik tamoyillarini saqlab qolingani holda asar bayoniga mo'jiza motivining kiritilishi;
- 2) tush motivi yordamida sehrli mazmun-mohiyatning isboti o'laroq fazoviy hayotiylikning buzilishi, reallik va noreallik o'rtasidagi chegaraning qorishib ketishi;
- 3) ratsional-mistik tafakkurning rad etilishi natijasi o'laroq zamonning subyektivligi va shartlilik hamda dunyoni poetik idrok etishning ifodasi;
- 4) yozuvchining yuksak madaniyat egasi sifatidagi qarashlarini birlamchi va yashirin borliqni qabul qilgan oddiy odam qarashlari bilan muntazam ravishda almashtirib borilishi;
- 5) muallif va qahramonning voqelikni tafakkurning mifologik, mistik va realistik turlari o'rtasidagi suhbatni nazarda tutuvchi ma'lum bir burchakdan ko'rish qobiliyati yordamida sehrlilik motivlarini tushintirilishi;
- 6) psixologik determinizmdan voz kechish, ya'ni sehrli realizmga mansub asarlarda psixologik tahlilning mavjud bo'lmashligi;
- 7) antiutopiya va antipragmatizm;
- 8) milliy, ma'naviy va tarixiy tajribalarning syujet vaziyatlari va xarakterlarining dalili hamda bayonning madaniy kontekst sifatida taqdim etilishi;
- 9) ekzistensial dunyoqarashning ustunligi⁷.

Biroq K.N.Kislitsin keltirgan bu xususiyatlarning hammasini ham to'g'ri deb aytish qiyin. Xususan, adabiyotshunos olimi N.Z.Shamsutdinova sehrli realizm uslubida yozilgan hamma badiiy asarlarda ham ekzistensial tafakkur va estetika bo'lavermashligi mumkinligi haqida fikr bildiradi⁸. Biz ham N.Z.Shamsutdinovanning bu boradagi yuqoridagi fikriga qo'shilamiz. Zero, sehrli realizm uslubida yozilgan hamma asarlarda ham ekzistensial tafakkur va dunyoqarashni uchratavermaymiz.

Yana bir rus adabiyotshunosi A.A.Gugnin ham sehrli realizm adabiyotiga xos bo'lgan xususiyatlarni ko'rsatib berishga harakat qiladi. Uning fikricha, sehrli realizm uslubida yozilgan badiiy asarlarda quyidagi to'rt xususiyat mavjud bo'lishi lozim:

- 1) zamon kategoriyasining maxsus ishlatilishi – vaqt bo'ylab barcha yo'nalishlarda erkin harakatlanish yoki har uchala zamonning bir vaqtda mavjud bo'lishligi;
- 2) XIX asrning ikkinchi yarmida ishlab chiqilgan tipik vaziyatlarda tipik qahramonni tasvirlashning psixologik yondashuvidan voz kechish, jamiyatning faoliyatini mifologik tasavvur va ong doirasida tasvirlash;
- 3) ikki xil borliqning o'zaro bog'liq tarzda mavjudligini ko'rsatib berish: asosiy, aniq va ravshan, biroq haqiqiy bo'lmagan "quyi" borliq hamda haqiqiy "yuqori" borliq;
- 4) badiiy asarning sehrli makoni (bu makon garchi aniq-ravshan tasvirlangan bo'lsada, hech bir geografik yoki tarixiy makonga mos tushmaydi, zero sehrli realizmda makon determinizmning umumqoidalariga bo'ysunmaydi va o'zining sehrli qoidalari bo'yicha mavjud bo'ladi⁹.

⁶ Бактин М.М. Вопросы литературы и эстетики: исследование разных лет. – М.: Художественная литература, 1975. – С.447.

⁷ Кислицын К.Н. Проза С.А.Клычкова: поэтика магического реализма: дис. ... канд. филол. наук / К.Н.Кислицын. – М., 2005. – 200с.

⁸ Шамсутдинова Н.З. «Магический» реализм в современной Британской литературе (А.Картер, С.Рушди): дис. ... канд. филол. наук / Н.З.Шамсутдинова. – М., 2008. – С. 50.

⁹ Гугнин А.А. Магический реализм в контексте литературк и искусства XX века: феномен и некоторые пути его осмысления. – Москва.: ИСПАН, 1998. – С. 42-43.



“Adabiyot atamalari va tanqidi” kitobining “sehrli” realizmga bag‘ishlangan bobida mualliflar, asosan, G‘arbiy Yevropa madaniyatiga oid asarlarni qurishning an‘anaviy usullariga taqlid qilish, qoralash, bo‘rttirish va parodiya qilish orqali ko‘pchilikning mohiyatini ifodalaydilar, G‘arbning hukmron madaniyatiga qarama-qarshi qo‘yish, uchinchi dunyo mamlakatlari madaniy an‘analari va muhitini ichkaridan taqdim etishdir deb hisoblaydilar. Bir qator adabiy ma‘lumotnomalar va entsiklopediyalarda “sehrli” realizm adabiyotining namunasi sifatida Karter va Rushdi ijodi keltirilgan.

Rus adabiy doiralarida ham, G‘arb adabiyotshunosligida ham hozircha fantastik asarlar bo‘yicha chiqarilgan xulosalar yetarli emasdek tuyuladi. Chunki 20-21 asrlarda realistik va modernistik uslubda yozilgan asarlarda mifologiyaning ko‘plab ishlatilishi, fantastik va realistik kategoriyalarning o‘ziga xos uyg‘unlashuvi natijasida badiiy asarlar o‘zgacha ko‘rinish kasb etdi. Natijada aksariyat asarlarda o‘ziga xoslik kuzatila boshlandiki, ularni u yoki bu toifaga ajratish ham murakkablik kasb etmoqda. Shuning uchun adabiyotshunoslar qarashlarida ham qarama-qarshilik kuzatila boshlandi. Ayrim adabiyotshunoslar ma‘lum bir asarning ayrim xususiyatlarini inobatga olib, uni fentezi yo‘nalishida yozilgan, deb hisoblashsa, boshqa bir mutaxassislar uning o‘zgacha xususiyatlariga ko‘ra sehrli realistik uslubda yozilganini da‘vo etishmoqda.

Badiiy adabiyotdagi fantastika kategoriyasi haqidagi qarashlarda hali ham turfa xillik kuzatiladi. Xususan, o‘zbek onlayn ensiklopediyasida hozirgi zamon o‘zbek adabiyotida X. To‘xtaboyevning “Sariq devni minib”, asari fantastika janrida yaratilgan, deb yozilgan¹⁰. Vaholangki, mazkur romanlarning fantastik asar bo‘lishi uchun xususiyatlari yetarli emas. Biroq bu asarlar realistik asar ham emasligi aniq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Roh, Franz. Magic Realism. Post-expressionism. (1927) / Franz Roh. // Magic Realism: Theory, Practice, Community. – Durham, NC and London: Duke University Press, 1995. – P. 15-31.
2. Bu haqda qarang: Кофман А.Ф. Проблема «магического реализма» в латиноамериканском романе / А.Ф.Кофман // Современный роман. Опыт исследования. – М.: Наука, 1990. С.185.
3. Карпентьер А. Царство земное. – М.: Издательство «Радуга», 1988. С.52.
4. Flores Angel. Magical Realism in Spanish American Realism / Hispania. Vol 38, No.2(May, 1955), pp.187-192.
5. Кутейшикова В.Н. Новый латиноамериканский роман / В.Н.Кутейшикова, Л.С.Осповат. – М.: Сов. Писатель, 1983. – С. 6.
6. Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики: исследование разных лет. – М.: Художественная литература, 1975. – С.447.
7. Кислицын К.Н. Проза С.А.Клычкова: поэтика магического реализма: дис. ... канд. филол. наук / К.Н.Кислицын. – М., 2005. – 200с.
8. Шамсутдинова Н.З. «Магический» реализм в современной Британской литературе (А.Картер, С.Рушди): дис. ... канд. филол.наук / Н.З.Шамсутдинова. – М., 2008. – С. 50.
9. Гугнин А.А. Магический реализм в контексте литературк и искусства XX века: феномен и некоторые пути его осмысления. – Москва.: ИСПАН, 1998. – С. 42-43.
10. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-f/fantastika-uz/>

¹⁰ <https://qomus.info/encyclopedia/cat-f/fantastika-uz/>